

TA'LIM BOSQICHLARI UZVIYLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI USULLARINI TASHKIL ETISHNING JAHON TAJRIBASI

Mukimova Mehriegul Farhod qizi

TAFU "Pedagogika" kafedrasи o'qituvchisi

mukimovamehrigul@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'limgizini o'rghanish, ularning ilg'or tajribalarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalda qo'llash dolzarb vazifa o'rghanilgan. Quyidagi bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarning talim tizimi, xususan, boshlang'ich ta'lumi mazmuni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lum va boshlang'ich ta'lum muassasalari, uzluksiz ta'lum.*

Аннотация: В данной статье считается актуальной задачей изучение системы образования развитых зарубежных стран, применение их передового опыта с учетом национальных особенностей. Ниже поясняется система образования ряда развитых зарубежных стран, в частности содержание начального образования.

Ключевые слова: Дошкольное образование и начальные учебные заведения, дополнительное образование.

Annotation: In this article, it is considered an urgent task to study the educational system of developed foreign countries, to apply their best practices taking into account national characteristics. The educational system of a number of developed foreign countries, in particular, the content of primary education, is explained below.

Keywords: Preschool education and primary educational institutions, continuing education.

Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdaromiz. 2017-yil 6-aprelda 187-sonli qarorga ko'ra umumta'lum fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lumi davlat ta'lum standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish,

kompetensiyaviy yondashuvda asoslangan dars ishlanmalar yaratish va amaliyotga joriy etish muhimdir. Umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Maktabgacha yoshidagi bolalar bilan ishlash maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan innovatsion ishlarda qatnashishni va jamiyatning rivojlanishiga hamohanglikni talab qiladi. Barcha yangilanishlar ta'lim tashkilotlarining rivojlanish konsepsiyasiga mos kelishi kerak. Agar maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamon talablariga javob bersa va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qabul qilsa, bu bolalar uchun kelajakda zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallash uchun imkoniyat yaratadi. Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta'lim tizimini jadal rivojlantirish, tizimda yillar davomida to'planib qolgan muammolarni kompleks bartaraf etish, bolalarning maktabgacha ta'lim tizimiga yanada kengroq qamrab olinishini ta'minlash maqsadida Respublika prezidenti va Hukumati tomonidan bir qator muhim islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, Respublika Prezidentining tegishli farmoni bilan sohadagi yagona davlat siyosatini yuritish orqali islohatlar samaradorligini oshirish maqsadida 2017-yil 1-oktabrda Maktabgacha ta'lim Vazirligi tashkil etildi.

Xulosa qilib, yuqoridaqilarni inobatga olgan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimini o'rganish, ularning ilg'or tajribalarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalda qo'llash dolzarb vazifa sanaladi. Xorijiy mutaxassislar pedagogik texnologiyalarning rivojlanishini uch bosqichga bo'lib o'rganish lozim deb hisoblaydilar. Birinchi bosqichda, o'qitish jarayonini faqat o'qituvchining o'zi olib borar edi. N.F.Talizina ta'kidlaganidek, «Inson tajribasi o'qitish texnologiyasi funktsiyasini bajargan». Ikkinci bosqichda esa, darslik va qo'llanmalar chop etila boshlagandan so'ng - o'qitish texnologiyasi mazmunida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'qituvchiga yordam beruvchi turli didaktik materiallar vujudga kela boshladi. Uchinchi bosqichda esa, o'qitish texnologiyasi mazmun jihatdan yanada boyidi, o'qituvchi va o'quvchilar uchun texnik vositalar, ya'ni o'rgatuvchi mashinalar ham qo'shildi. Texnologiya taraqqiyotida inson psixologiyasi katta o'rin tutadi. Tarixan pedagogik texnologiya taktik (strategik emas) jihatdan faoliyat ko'rsatgan va rivojlangan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Boshlang'ich ta'lim tizimi. Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari

asosan davlat tasarrufida bo‘lib, ular uchun ta’lim dasturiga tegishli bo‘lgan davlat ko‘rsatmalari mavjud. Ta’limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) xukumatining konpetentsiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy rahbarlik ham bor: ta’lim vazirligi ta’lim siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqadi, OO‘Yularini kengaytirishga mablag‘ ajratadi. GFR konstitutsiyasiga ko‘ra har bir Federal yer o‘z hududidagi maktab va oliv ta’limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha o‘zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal xukumat umumta’lim va oliv ta’lim muassasalarida o‘qitish kurslarida birlikni ta’minalash maqsadida hamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta’lim sohasi bo‘yicha siyosati kelishilgan: ta’limning davomiyligi, ta’tillar, o‘quv dasturi, imtixonlarni o‘zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir. Federal hukumatning huquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan.

Ta’limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Yerlar davlat umumta’lim, kasbiy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun pul olmaydi;
- barcha Federal yerlarda o‘quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o‘z hisobidan beradi;
- deyarli barcha o‘quvchilarga darslik va o‘quv qo‘llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beriladi;
- ma’lum toifadagi o‘quvchilar va talabalarga mayjud federal qonunlarga ko‘ra davlat moddiy yordam ko‘rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o‘quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o‘quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo‘lganligi bois turli pedagogik muqobilarning aprobatasiyasi o‘tkazilib turiladi. Sekin asta differentsiyalashgan ta’lim tizimi, ya’ni har bir o‘quvchiga uning qobiliyati va o‘qishdagi turlicha yo‘nalishiga ko‘ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta’lim tizimi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Elementar ta’lim: maktab ta’limining 1-bosqichiga tegishli bo‘lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog‘chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo‘lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko‘ra ixtiyoriydir.

2. Ta’limning birinchi bosqichi, boshlang‘ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O‘qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagisi ta’limning maqsadi – bolalarga ta’limning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta’limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat

3. Ta’limning ikkinchi bosqichi “yo‘nalishli bosqich” deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko‘ra o‘quv muassasalarining kerakli turiga yo‘naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O‘quvchilar ta’lim haqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta’limning to‘rtinchi bosqichi gimnazianing yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta’lim va muassasalarda kasbiy ta’lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta’lim “dual tizim” deb ham ataladi, unda ta’lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o‘qishni tugatish o‘rta ta’limni tugatish bilan teng bo‘lib, yakunida faqat kasbiy sohada o‘qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o‘qib, o‘quvchilar umumiy shahodatnoma “yetuklik attestati” – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o‘quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta’limning beshinchi bosqichi oliy ma’lumot haqida diplom beruvchi oliy o‘quv yurtlari va malaka oshirish o‘quv muassasalari. GFR ta’lim tizimi umumyevropa ta’lim tizimiga integratsiyalashgan: o‘quv muassasalarining barcha turlari Yevropa Ittifoqi dasturini amalga oshirishga mo‘ljallangan, Chet davlatlari ta’lim standartlari unifikatsiya (bir xillashtirish) qilingan, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega. Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Shiller, Gyote, Shneiger, Gumbolg‘dt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o‘rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelg‘berg universiteti bo‘lib, 1386-yil tashkil topgan. 1388-yil tashkil topgan Kyolg‘n universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o‘quv muassasalari qadimiy an‘analari va klassik ta’limi bilan mashhurdir. Germaniya Federativ Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi asosiy qonuniga” ko‘ra har bir o‘quvchi o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Ta’lim sohasidagi bunday siyosatning maqsadi har bir shaxsning qiziqishi va talablarga javob beradigan malakali tayyorlarlikni olish imkonini berishida imkon qadar ko‘proq yordam berishdan iboratdir. Germanyaning har bir o‘quvchisi butun hayoti davomida umumiy, oliy va kasbiy ta’lim olish imkoniyatiga ega. Chunki Germaniya yuqori rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo‘lib, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Germaniya hukumati turli sohalarda sifatlari mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. Shu bois nemis ta’lim tizimining rivojlanishiga katta miqdorda mablag‘ ajratiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida fan konsepsiyalari, qiyosiy jadvallar, uzviyligi ta’minlangan fan dasturlari muhokama qilish portaliga joylashtiriladi. Muhokamalar

natijasida takomillashtirishga qaratilgan takliflar asosida o‘zgartirishlar kiritiladi. Uzviylashtirilgan fan dasturlari asosida darsliklar mazmuni uzviyligi ta’minlanadi.

Koreys bog‘chalari talim tizimining bir qismi hisoblanmaydi. Bolalar xususiy muassasalarda qabul qilinadi. Ular asosan koreys tilida, biroq ingliz tilida faoliyat yuritadigan bog‘chalar ham anchagina. Bog‘chalarga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Ko‘pchilik bolalar maktabga tayyorgarlik ko‘rishmaydi va shunchaki oz tengqurlari bilan bog‘chalarga qatnab yuraverishadi. Bog‘chaning asosiy vazifasi bolalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish. Bog‘chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o‘tiladi. Koreys bog‘chalari bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yoshgacha bolishi mumkin. Boshlang‘ich maktab Koreyada boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o‘qishga kirishga huquqli bo‘lib, buning uchun maktab mas’ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo‘ladi. Ular 13 (12) yoshgacha boshlang‘ich maktablarda ta’lim oladilar. O‘quv yili esa 1 mart Koreya respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang‘ich ta’lim majburiy etib belgilangan. Boshlang‘ich ta’limda 1 yil ikki semestrga bo‘lingan holda olib boriladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan fanlar qatoriga: Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, chet tili, tasviriy san’at, musiqa kiradi.

Uzluksiz ta’lim tizimi sifatini ta’minlashda bir qancha muammoli masalalar mavjudligini ko‘rish mumkin. Jumladan:

- Nima uchun maktabning birinchi sinfiga borgan bola darslarga moslashish va fan dasturida berilgan mavzularni o‘zlashtirishda qiynaladi?
- Nega boshlang‘ich ta’limda yaxshi baholarga o‘qigan bola yuqori sinflarda o‘qishi pasayib ketadi?
- Nima uchun o‘quvchi kasb tanlashda mustaqil tanlovni amalga oshira olmaydi?
- Nega oliy ta’limni tugatganlar kasbiy faoliyatga tezkor kirishib keta olmaydi? Bu kabi savollarning javobi sifatida uzluksiz ta’lim tizimida uzviylikning ta’minlanmaganligini ko‘rsatish mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishi davomida AQSH va Singapurdagagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun sifatni mustaqil baholash tizimlarining xususiyatlari tahlil qilindi. Amerika Qo‘shma Shtatlari. Mamlakatdagi deyarli barcha shtatlar erta bolalik ta’limi (maktabgacha ta’lim) uchun moliyaviy yordam dasturini amalga oshirmoqda. Shunga ko‘ra, ularning samaradorligini aniqlash kerak va buning uchun birinchi navbatda ta’lim xizmatlari sifatini baholash talab etiladi. Bu davlat tomonidan

moliyalashtiriladiigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va bolalar rivojlanish markazlarini tashqi baholash dasturlarini amalga oshirish uchun asos bo'ldi. Ushbu dasturlarni amalga oshirishning asosiy muvofiqlashtiruvchisi-Umumiy ma'muriy reglamentlar ta'lim departamenti (Education Department General Administrative Regulations(EDGAR).

AQSHda ta'lim sifatini baholash test natijalariga va bolalarning akademik bilimlarini tekshirishga asoslanadi: bu yerda bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga qanday kelganligi (dastlabki ko'rsatkichlar) va uni qanday tugatganligi (yakuniy ko'rsatkichlar) muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandini olib kelishga qaror qilishlari uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'zaro raqobatlashishga majbur. Bu yerda baholashning asosiy parametri- bu ta'lim sifatidan qoniqish va ta'lim tashkiloti haqida ota –onalarni ijobiy fikrlari.

Belarusiya "maktab-bolalar bog'chasi" ta'lim muassasasi to'g'risida "bolalar rivojlanishi markazlari" ni tashkil etuvchi nizomni ishlab chiqdi va tasdiqladi - ushbu yangi turdag'i integral o'quv muassasalari maktabgacha va maktab bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maqbul sharoitlarni yaratish maqsadida tashkil etilgan. o'quv jarayonini tashkil etish va mazmunini uzluksizligini ta'minlash. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tashkilotlarida ta'lim bosqichlari uzviyilagini ta'minlashning samarali mexanizmlari takomillashtirilgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduhalikov T.X. O'rta mahsus, kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringini tashkillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari:Diss.ped.fan nom.-T.:OMKHTRI, 2003.-175 b.
2. Абдухакимова М.К. Организационна-педагогические основы развития системы дошкольного образования в республике Узбекистан (1991-2000гг.). ТДПУ-2004; 174с. Дисс.на соис.учен.степ.кан.пед.наук.
3. Ахлидинов Р.Ш. Социално-педагогические основы управления качеством общего среднего образования.: Автореф. дис. Д-ра пед. наук. – Ташкент,2002.- 44с.
4. Багутдинова Н. Управление качеством образования / Н. Багутдинова, Н.Новиков. // Стандарты и качество-2002.-№9.
5. Barqaror rivojlanish maqsadlari. <http://www.un.uz/uzb/pages/display/sdgs>